Yusupova Vasilva Yangibayevna	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	606
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar	609
O'rmonov Elmurod Mamasoliyevich	



Umumta'lim maktabi o'quvchilarining kreativ fikrlashini tarbiya darsligi vositasida rivojlantirish	612
<i>Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi</i>	
The Effectiveness of Visual Teaching Methods in Developing Self-Directed Learning Competence Among Undergraduate Mehnat Muhofazasi va Texnika Xavfsizligi Students	615
<i>Abdullayeva Mukhlisakhon Akhrorjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashda xorij tajribasi	620
<i>Aliyeva Ravshanoy Zaripovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning tashkiliy shakllari va ta'lim vositalari	624
<i>Daniyarova Sarbinaz Maxsetovna</i>	
Nutq madaniyatini shakllantirishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari	627
<i>Davlatova Nigora Berdimurot qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni tizimli boshqarishning ilmiy-pedagogik asoslari	631
<i>Fotima Uralovna Jumanova, Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi</i>	
Yosh mutaxassislarda ijtimoiy muhitga moslashishda emotsional intellektning namoyon bo'lishi	635
<i>G'affarova Nazira Fayzulla qizi</i>	
Ko'p ma'noli so'zlarning badiiy matnda qo'llanilishi	639
<i>G'ulomova Zilola Rafiqjon qizi</i>	
Oilaviy munosabatlarda er-xotin bir-birini o'zaro tushunishining o'ziga xosligi va ahamiyati	642
<i>Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna</i>	
Gospital maktablar faoliyatini tashkil etishda Buyuk Britaniya, AQSh, Finlyandiya, Germaniya va Gretsiya tajribalardan foydalanish	646
<i>Isakulova N. J.</i>	
Interactive Approaches to Developing EFL Learners' Listening Skills	650
<i>Isayeva Umida</i>	
Global o'zgarishlar sharoitida yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari	653
<i>Kudratova Lola Ravshanovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tezkor hisoblashga o'rgatishning samarali usullari	656
<i>Mamasaidova Muhabbat Abdusalom qizi, Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida bolalarga ingliz tilini o'rgatish	660
<i>Marasulova Dono Nigmatullayevna</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanib 10-sinfda fizika masalalarini o'rgatish metodikasi	665
<i>Matenova Go'zzal Djumabayevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ona tilini o'qitish metodlarini takomillashtirish	671
<i>Muminova Munajat Yuldashevna</i>	
Bolalarning etnopsixologik xususiyatlarini rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlari	675
<i>Norbekova Barno Shavkatovna</i>	
Qashqadaryo viloyati maktablarida yangi baholash tizimini joriy etishning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'siri	679
<i>Panjiyev Maqsud Aliqulovich</i>	
O'zbek tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini tanlash mezonlari	683
<i>Polvonova Shahnoza Faxriddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda yil fasllariga oid materiallarni innovatsion-integratsion yondashuvlar asosida o'rgatish metodikasini samaradorligini oshirish	686
<i>Rajabova Muxayyo Komilovna</i>	
Pedagogik jarayonda bilimlar integratsiyasi orqali tahlil qobiliyatini shakllantirish yo'llari	691
<i>Rustamova Latofat Istam qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar	694
<i>Rustamova Manzura Mirkamolovna, Zamira Talipova</i>	
Zamonaviy raqamli jamiyatda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi va uning yoshlar ongiga ta'siri	697
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna</i>	

Insondagi hayotiy tanlov bilish psixologiyasining sohasi sifatida.....	703
S. S. Shukurullojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish	708
Sharofova Feruza Qavmiddinbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	713
Xilola Ochilova Sheraliyevna	
Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda munosabatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari.....	716
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Ibodullayeva Sharifaxon Oybek qizi	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	721
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
O'smirlik davridagi inqiroz va uning muammolarining psixologik rivojlanish mexanizmlari	725
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Maksudbekova Shaxzoda Sherzod qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xosligi	730
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Menlimuratova Gulsanem	
Взаимосвязь защитных механизмов и психологической устойчивости подростков в условиях цифровой среды	734
Алимова Елена Геннадьевна	
Narrativ materiallar vositasida oilada o'smir yoshdagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirish texnologiyalari.....	740
Yunusova Shahnoza Axror qizi	
Интеграция мультипликации в образовательную среду доо как средство всестороннего развития личности ребенка	745
Терехова Ольга Евгеньевна, Аллазарова Мадина Давронбековна	
Совершенствование речевой культуры студентов	749
Пардабоева Дильфуза Рустамовна	
Использование потенциала искусства в формировании эмоционального интеллекта и социальной компетентности дошкольников	752
Терехова Ольга Евгеньевна, Сайфидинова Мунира Бурхонидиновна	
Теоретические основы проектирования инновационных моделей формирования коммуникативной готовности к школе	756
Терехова Ольга Евгеньевна, Абдурауфова Хилолахон Шахобитдин кизи	
Теоретико-методологические основы формирования логического мышления старших дошкольников посредством интеграции традиционных и интерактивных игр	760
Терехова Ольга Евгеньевна, Рахимова Гулноз Эркиновна	
От репродукции к авторству: поэтапная система развития языковой креативности в старшем дошкольном возрасте	764
Терехова Ольга Евгеньевна, Каримова Регина Равильевна	
Опытно-экспериментальное исследование формирования нравственно-волевых качеств дошкольников в условиях доо средствами национальных игр	768
Терехова Ольга Евгеньевна, Хакимова Одина Шермухамматовна	



QASHQADARYO VILOYATI MAKTABLARIDA YANGI BAHOLASH TIZIMINI JORIY ETISHNING TA'LIM SIFATI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

Panjiyev Maqsud Aliqulovich

Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
boshlig'ining birinchi o'rinbosari, Xalq ta'limi a'lochisi



Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablarida joriy etilayotgan yangi baholash tizimining ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2024-yil 6-maydagi 263-son qarori asosida amalga oshirilayotgan baholash islohotlari, ularning maktablar faoliyati, o'qituvchilar kasbiy rivoji hamda o'quvchilarning o'quv natijalariga ta'siri o'rganildi. Empirik tahlil Qashqadaryo viloyatida yangi baholash tizimi joriy etilgan maktablar misolida olib borildi. Tadqiqot natijalari yangi baholash tizimi ta'lim sifati past bo'lgan maktablar sonining qisqarishi, pedagoglar faoliyatining rag'batlantirilishi va o'quvchilar bilim ko'rsatkichlarining barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini aniqladi. Maqola xulosalari hududiy ta'lim sifatini oshirishda baholash tizimini takomillashtirish muhim strategik omil ekanini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, yangi baholash tizimi, umumta'lim maktablari, pedagogik monitoring, hududiy ta'lim islohotlari, Qashqadaryo viloyati.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the impact of implementing a new assessment system in general secondary schools of Kashkadarya region on education quality indicators. The study examines assessment reforms introduced in accordance with the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 263 dated May 6, 2024, and analyzes their influence on school performance, teachers' professional development, and students' academic outcomes. An empirical analysis was conducted based on schools in Kashkadarya region that have adopted the new assessment system. The findings indicate that the new assessment approach has contributed to a reduction in the number of low-performing schools, increased teacher motivation through performance-based incentives, and ensured steady improvement in students' learning outcomes. The article concludes that improving assessment systems plays a strategic role in enhancing the quality of regional education.

Key words: education quality, new assessment system, general secondary schools, pedagogical monitoring, regional education reforms, Kashkadarya region.

Аннотация: В статье проводится научный анализ влияния внедрения новой системы оценивания в общеобразовательных школах Кашкадарьинской области на показатели качества образования. В исследовании рассматриваются реформы в сфере оценивания, реализуемые на основе Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан №263 от 6 мая 2024 года, а также их влияние на деятельность школ, профессиональное развитие педагогов и учебные результаты учащихся. Эмпирический анализ выполнен на примере школ Кашкадарьинской области, перешедших на новую систему оценивания. Результаты исследования свидетельствуют о положительном влиянии новой системы оценивания на сокращение числа школ с низким качеством образования, повышение мотивации педагогов и устойчивый рост учебных достижений учащихся. Сделан вывод о стратегической значимости совершенствования системы оценивания в повышении качества регионального образования.

Ключевые слова: качество образования, новая система оценивания, общеобразовательные школы, педагогический мониторинг, региональные образовательные реформы, Кашкадарьинская область.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida ta'lim natijalarini xolis va shaffof baholash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini xalqaro talablar asosida aniqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashda baholash tizimi nafaqat nazorat vositasi, balki o'quv jarayonini boshqarish, pedagogik faoliyatni rag'batlantirish va o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishning muhim mexanizmi sifatida qaralmoqda.

Mazkur yo'nalishda O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-maydagi 263-son qarori bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash va rag'batlantirishning yangi mexanizmlari joriy etildi. Ushbu hujjatga muvofiq, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, pedagoglarning kasbiy faolligi hamda maktablar faoliyatining samaradorligini baholashda yangi yondashuvlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu jarayon ta'lim sifati past bo'lgan maktablar faoliyatini tahlil qilish, ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan aniq choralarni belgilash imkonini bermoqda.

Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablarida yangi baholash tizimini joriy etish jarayoni mazkur islohotlarning hududiy amaliyotdagi namunasidir. Viloyatda bosqichma-bosqich yangi baholash tizimiga o'tkazilgan maktablar faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, baholash mezonlarining aniqligi va shaffofligi ta'lim sifati monitoringini kuchaytirishga, pedagoglarni natijadorlikka yo'naltirishga hamda o'quvchilarning bilim ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, baholash tizimidagi o'zgarishlar maktab rahbariyati va pedagogik jamoa faoliyatida mas'uliyatni kuchaytirib, ta'lim jarayonini boshqarishning yangi modelini shakllantirmoqda.

Xalqaro tajribada ham baholash tizimi ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. OECD, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida formatif va summativ baholashning uyg'unligi, natijaga yo'naltirilgan baholash mexanizmlarining joriy etilishi ta'lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston ta'lim tizimida, jumladan, Qashqadaryo viloyati maktablari amaliyotida ham o'z aksini topmoqda. Shu bois, Qashqadaryo viloyati maktablarida yangi baholash tizimini joriy etishning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish, uning ijobiy jihatlari va mavjud muammolarini aniqlash hamda hududiy ta'lim siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim sifatini oshirishda baholash tizimining o'rni va ahamiyati so'nggi yillarda pedagogika va ta'lim boshqaruvi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ilmiy adabiyotlarda baholash endilikda faqat o'quvchilarning bilim darajasini aniqlovchi vosita emas, balki o'quv jarayonini boshqarish, pedagogik qarorlar qabul qilish hamda ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi strategik mexanizm sifatida talqin etiladi. Shuningdek, UNESCO tomonidan e'lon qilingan so'nggi hisobotlarda (2023–2024) ta'lim sifatini ta'minlashda baholash tizimini isloh qilish ta'lim barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatiladi. UNESCO ekspertlari baholash tizimining shaffofligi, inklyuzivligi va kompetensiyaga yo'naltirilganligi o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda ham yangi baholash tizimlarining ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'siri ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Masalan, Hattie (2023) baholashni o'qitish jarayoniga integratsiyalash orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi teskari aloqani kuchaytirish o'quv natijalarining sezilarli yaxshilanishiga olib kelishini ko'rsatadi. Black va Wiliam (2022) esa formatif baholashning samarali qo'llanilishi o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishini ilmiy dalillar bilan asoslaydi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham baholash tizimini takomillashtirish masalasi dolzarb yo'nalish sifatida o'rganilmoqda. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ta'lim sifatini baholashda yangi yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-maydagi "Sifatli ta'limni ta'minlashda ijobiy natijalar ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbariyati hamda o'qituvchilariga ustama berish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 263-son¹ qarori umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholash va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat sifatida e'tirof etiladi. Ushbu qaror asosida ishlab chiqilgan nizomlarda maktablar faoliyatini baholashda natijadorlik, pedagoglar malakasi va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilgan. Hududiy tadqiqotlar va tahliliy materiallarda yangi baholash tizimini joriy etish ta'lim sifati past bo'lgan maktablar sonini qisqartirish, pedagoglarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish hamda maktablar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilayotgani qayd etiladi.

Qashqadaryo viloyati ta'lim tizimiga oid so'nggi tahliliy ma'lumotlarda yangi baholash tizimi joriy etilgan maktablarda ta'lim sifati ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi kuzatilgani ilmiy-amaliy jihatdan muhim holat sifatida baholanmoqda. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, baholash tizimini joriy etish jarayonida pedagoglarning metodik tayyorgarligi, baholash mezonlarining tushunariligi va baholash natijalaridan samarali foydalanish kabi masalalar yetarli darajada ilmiy yoritilmagan. Ayniqsa, hududiy kesimda yangi baholash tizimining ta'lim sifati ko'rsatkichlariga kompleks ta'sirini empirik ma'lumotlar asosida o'rganish zarurati saqlanib

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-6911657>



qolmoqda. Demak, mavjud ilmiy adabiyotlar va normativ manbalar tahlili Qashqadaryo viloyati maktablarida yangi baholash tizimini joriy etishning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini chuqur ilmiy tadqiq etish dolzarb va amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablarida yangi baholash tizimini joriy etishning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar, ochiq rasmiy statistik ma'lumotlar hamda hududiy empirik ko'rsatkichlar asosida qiyosiy va tizimli tahlil amalga oshirildi. Yangi baholash tizimi joriy etilgan maktablarning ta'lim sifati ko'rsatkichlari islohotlar joriy etilishidan oldingi davr bilan taqqoslanib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, pedagoglar faoliyatining natijadorligi hamda ta'lim sifati past bo'lgan maktablar sonidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Tadqiqotda statistik va kontent-tahlil usullaridan foydalanilib, baholash tizimi islohoti bilan ta'lim sifati ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi rasmiy va ochiq manbalarga tayangan holda bir nechta ma'lumotlar bazasi asosida qiyosiy tahlil o'tkazilganligi bilan ta'minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablarida yangi baholash tizimini joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ta'lim sifati ko'rsatkichlarida ijobiy dinamikani yuzaga keltirganini ko'rsatadi. Hududda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-maydagi 263-son2 qarori asosida bosqichma-bosqich yangi baholash tizimiga o'tkazilgan maktablar faoliyati tahlili natijalariga ko'ra, ta'lim sifati past bo'lgan maktablar soni sezilarli darajada qisqargan. Xususan, 2023–2024 o'quv yilida viloyatda ta'lim sifati yuqori bo'lmagan maktablar soni 215 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024–2025 o'quv yiliga kelib ushbu ko'rsatkich 99 taga tushgan bo'lib, bu 116 ta maktabda ta'lim sifati ko'rsatkichlari yaxshilanganini anglatadi. Ushbu holat yangi baholash tizimi orqali maktablar faoliyatini tizimli monitoring qilish, bitiruvchi sinf o'quvchilarini oliy ta'limga yo'naltirish hamda pedagoglarning toifalanish ulushini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Yangi baholash tizimi joriy etilgan maktablarda pedagoglar faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlarining kuchaytirilishi ham muhim natijalardan biri sifatida qayd etiladi. Jumladan, yangi baholash tizimi asosida ijobiy natijalarga erishgan maktablarning rahbariyati va o'qituvchilariga 30 foizgacha ustama to'lovlar belgilanishi pedagoglarning kasbiy mas'uliyati va natijadorligini oshirishga xizmat qilgan. Natijada o'qituvchilarning dars jarayoniga yondashuvida tizimlilik, baholash mezonlariga mos rejalashtirish va o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga yo'naltirilgan metodik faoliyat kuchaygani kuzatildi. Shuningdek, baholash tizimidagi o'zgarishlar o'quvchilarning bilim ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Yangi baholash tizimi joriy etilgan maktablarda choraklar kesimida o'quvchilar o'zlashtirish darajasida barqaror o'sish kuzatilgan bo'lib, baholash natijalari asosida individual va guruhviy kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli pedagogik chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Bu holat baholash tizimining nazoratdan tashqari rivojlantiruvchi va boshqaruv funksiyasini ham bajarayotganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyati maktablarida yangi baholash tizimini joriy etish ta'lim sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ta'lim sifati past bo'lgan maktablar sonining qisqarishi, pedagoglar faoliyatining natijadorlikka yo'naltirilishi va o'quvchilar bilim ko'rsatkichlarining o'sishi baholash tizimi islohoti hududiy ta'lim siyosatining muhim tarkibiy qismi ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablarida yangi baholash tizimini joriy etish ta'lim sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashda samarali mexanizm ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, baholash tizimining shaffof va natijaga yo'naltirilgan mexanizmlar asosida tashkil etilishi ta'lim sifati past bo'lgan maktablar sonining sezilarli darajada qisqarishiga, pedagoglar faoliyatining rag'batlantirishiga hamda o'quvchilar o'zlashtirish darajasining barqaror oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Yangi baholash tizimi maktablar faoliyatini tizimli monitoring qilish imkonini yaratib, baholash natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish mexanizmini shakllantirgan. Shu bilan birga, baholash tizimi pedagogik jarayonni faqat nazorat qilish bilan cheklanmasdan, uning rivojlantiruvchi va boshqaruv funksiyalarini ham bajarayotgani aniqlanib, hududiy ta'lim siyosatini takomillashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- umumta'lim maktablarida yangi baholash tizimini joriy etish jarayonida baholash mezonlarining yagona va tushunarli standartlarini ishlab chiqish hamda ularni pedagoglar uchun muntazam metodik qo'llanmalar orqali izchil tushuntirish zarur;
- baholash natijalarini o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi bilan uzviy bog'lab, past natija ko'rsatgan maktablar va pedagoglar uchun maqsadli malaka oshirish dasturlarini joriy etish lozim;
- baholash tizimi asosida shakllangan statistik ma'lumotlardan hududiy ta'lim boshqaruvi darajasida strategik rejalashtirish va resurslarni taqsimlashda samarali foydalanish tavsiya etiladi;
- yangi baholash tizimini raqamli monitoring platformalari bilan integratsiya qilish orqali ma'lumotlarning shaffofligi va tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq;
- mazkur tizimni joriy etishda Qashqadaryo viloyatida to'plangan ijobiy tajribani boshqa hududlar amaliyotiga bosqichma-bosqich tatbiq etish, shu bilan birga hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda moslashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyati maktablarida yangi baholash tizimini joriy etish tajribasi umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarning samarali modeli sifatida baholanishi mumkin bo'lib, mazkur tadqiqot natijalari hududiy va respublika miqyosida ta'lim siyosatini takomillashtirishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-maydagi "Sifatli ta'limni ta'minlashda ijobiy natijalar ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbariyati hamda o'qituvchilariga ustama berish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 263-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6911657>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2023. – <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-apreldagi PQ-152-son qarori. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2024. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7499549>
4. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – DOI: <https://doi.org/10.1787/69096873-en>
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023. – URL: <https://www.unesco.org/gem-report>
6. Black, P., & Wiliam, D. Classroom assessment and pedagogy. – Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 2022, Vol. 29(1), pp. 1–25. – DOI: <https://doi.org/10.1080/0969594X.2021.1884042>
7. Hattie, J. Visible Learning: The Sequel – A Synthesis of Over 2,100 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2023. – ISBN: 978-1-036-00538-0
8. Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi. 2023–2025-yillarda umumta'lim maktablarida ta'lim sifati va baholash tizimi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar (rasmiy hisobot). – Qarshi, 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.